



MAVZU: ZULFIYA-SO‘ZDAN YURAK YASAGAN SHOIRA

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

2-son Davolash fakulteti 227-B gurux

Talabasi Jumanazarova Sabrina

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek xalq shoirasining she‘riy merosida sevgi, vatanparvarlik ruhi, ayol obrazining badiiy talqini hamda tabiat tasvirining poetik ifodasi keng yoritilgan. Maqolada shoiraning asarlari orqali ayol qalbining go‘zalligi, insoniy tuyg‘ularning yuksakligi va mehr-muhabbatning badiiy ifodasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan

Kirish

O‘zbek adabiyotining yorqin siymolaridan biri, so‘zdan tuyg‘u, satrdan esa qalb yasay olgan betakror shoirasi Zulfiya Isroilova. Yozuvchi she‘rlari nafaqat go‘zal badiiy ifodasi, balki samimiyligi, inson qalbiga yaqinligi bilan ham ajralib turadi. Zulfiya ijodida ayolning nozik ruhiy olami, vatan muhabbati, sadoqat va ezgulik g‘oyalari chuqur aks etadi. Shoiraning har bir satrida mehr, hayotga muhabbat va umid nafasi sezilib turadi. Shu bois Zulfiya she‘riyati yillar o‘tsa ham o‘z qadrini yo‘qotmay, kitobxon qalbida iliq tuyg‘ular uyg‘otishda davom etadi.

Zulfiya Isroilova 1915-yil Toshkentning o‘qchi mahallasida tug‘ilgan. “Onam ohista va xotiramda saqlanishicha, ma’yus bo‘lganlar. Lekin ularda qullik horg‘inligi bo‘lmagan... Ular qanchadan-qancha qo‘shiq va afsonalar bilganlar, ularni mohirona aytib, kuylab bera olganlar, biz-farzandlarini sehrli ertaklar bilan qiziqтира olganlar, - eslaydi Zulfiya, onasini xotirlar ekan. Mo‘jizalarga sabab



bo‘luvchi, dunyoni fosh qiluvchi, insoniyatni ajoyibotlar sari yetaklovchi so‘zga bo‘lgan mehrni oddiygina ayol - onam uyg‘otganlar...”

Tabiiyki, onamlar farzandlari o‘qimishli, madaniyatli insonlar bo‘lishini istaganlar. Ularning orzusi ro‘yobga chiqdi ham. Zulfiya o‘rta maktabni va ayollar pedagogika bilim yurtini tamomlab, respublika gazeta va oynomalari nashriyotida ish faoliyatini boshladi, she‘riyatga qiziqib qoldi va she‘rlar yoza boshladi. Uning ilk she‘rlari “Yangi yo‘l” oynomasi va “Qizil O‘zbekiston” hamda “Yosh leninchi” gazetalarida chop etila boshlagan.

1932-yil 17 yoshni qarshi olganida, uning “Hayot sahifalari” nomli ilk she‘riy to‘plami omma yuzini ko‘rdi. Bular — yoshlar, do‘stlik, inson qalbining go‘zalligi haqidagi she‘rlar edi. So‘ngra, she‘rlari, dostonlari va hikoyalari e‘tirof qilinib, turli nashrlarda alohida kitoblar ko‘rinishida chop etila boshladi. Mashaqqatli urush yillari Zulfiyaning iqtidori butunlay ravnaq topadi va o‘ta yorqin tus oladi: uning she‘rlarida vatanparvarning serg‘ayrat ovozi jaranglaydi, Vatani mustaqilligi uchun qo‘liga qurol olib kurashayotganlarga, har kunlik chuqur kurash ortida mashaqqatli mehnati ila frontni barcha kerakli narsalar bilan ta‘minlayotganlarga nisbatan lirik ilqligi seziladi. “Uni Farhod derdilar” she‘rida isyonkor fashistlarga nisbatan nafrat, g‘alabaga ishonch ifodalangan. G‘animga qarshi kurashga chorlov askar-o‘g‘il haqidagi ona qo‘shig‘i, xotini va onasini sog‘ingan jasur frontchi, paxlavon eri uchun qayg‘urayotgan ayolning qayg‘uli xavotiri bilan bog‘lanadi.

Shoira vatanidan tashqaridagi baxtni tan olmaydi, xatto u yer yaxshiroq bo‘lsa ham: “Axir, baxt ona diyoridagina tirikdir”. Urush nihoyasiga yetdi, g‘alabani qarshi olishdi, g‘oliblar zavq ila kutib olindi va urushdan qaytmaganlarga ko‘z yosh to‘kildi, tinchlik osmoni shoira qalbini egallaydi. Zulfiyaning urush yillaridan keyingi she‘rlari yangi falsafiy mazmun bilan to‘yingan; unda urushdan yaralangan haqiqat tasviri kengroq ko‘lamda ifodalanib, xalqning g‘ayratli mehnati kutilmagan ravnaq ila yakun topishi bilan farqlanadi. Uning she‘riyatida mehnat mavzusi



ustunroq o‘rin egallaydi. U mamlakat saodati uchun o‘z kuchini sarflayotgan paxtachilarni va ishchilarni, muhandis va olimlarni tarannum etadi. Zulfiya odamlarni, ularning baxtini butun O‘zbekiston mamlakatidan ajratmaydi.

Zulfiya ijodida o‘zbek ayolining taqdiri muhim o‘rin egallaydi, uning mamlakat hayotidagi faol o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Zulfiya uzoq o‘tmishda ayol o‘rni uy-ro‘zg‘or yumushlari doirasida bo‘lganligini, uyda ham bek, ham hukmdor bo‘lgan eriga itoatli cho‘ri bo‘lib, bosh egishi lozim bo‘lganligini yashirmaydi.

Zulfiya she‘riyati tabiatga hamda uning ajralmas qismi va yuqori cho‘qqisi bo‘lmish odamzotga nisbatan hayajonli sevgi bilan burkangan. Uning she‘rlarida tabiat och ranglarda, yorqin bo‘yoq va timsollarda gavydalanadi.

Zulfiyaning olijanoblik, jasorat, haqqoniy xalq g‘ururi, tabiat va insonga nisbatan samimiy tuyg‘ular va hurmat, boy ranglar va kutilmagan yangi timsollar bilan bajarilgan lirikasi, kitobxon qalbini larzaga keltiradi, insoniyatning kelajakka bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Iqtidorli shoira va yozuvchi, inson qalb tug‘yonlarini o‘tkir bilimdoni bo‘lib, turli janrlarda asarlar yaratgan: dostonlar, balladalar, elegiyalar, nasriy she‘rlar, hikoyalar, ocherklar, publististik maqolalar va gazeta xabarlar. Uning ko‘p she‘rlari SSSR xalqlari tinchligi va do‘stligi sari kurashga bag‘ishlangan edi. Urush yillari u vatanparvarlik she‘rlarini yozgan. U tomonidan, shuningdek, o‘zbek bastakorlarining operalariga librettolar ham yozilgan, masalan, “Zaynab va Omon” operasiga libretto. Shu bilan birga, turmush o‘rtog‘i Hamid Olimjon qalamiga mansub “Semurg‘” dostoni mavzusi asosida, ertak-sahna asarini ham yozgan.

Shoiraning eng mashhur she‘rlari: “Xulkar” (1947), “Men tongni kuylayman” (1950), “Yuragimga yaqin kishilar” (1958), “Yurak yo‘lda” (1966), “Mening bahorim” (1967), “Sharshara” (1969) kabilardir.



Zulfiyaning ayrim she'rlari rus tiliga tarjima qilingan. asalan, "Men tongni kuylayman" (1950) ("Ya poyu zaryu"), rus tiliga 1951 yil tarjima qilingan. Zulfiyaning butun she'riy ijodi — O'zbekiston diyorining ilhom madhiyasi, inson mehnati madhiyasi, sevgi va yerdagi adolat uchun madhiyasidir. Zulfiyaning qoyilmaqom ijod mehnatiga ko'p yillar bo'ldi, respublika hayoti va uning xalqi taqdirida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi, lekin "sevgining alangali kuchi bugun ham o'quvchining qalbini isitadi, yuragini va ongini hayajonlantiradi". 2008 yil 1 may kuni Toshkentda Zulfiya haykali o'rnatilgan. Uning asarlari asosan sevgi, insoniylik va yurtni sevish kabi mavzularda bo'lib, ular o'zining soddaligi va samimiyligi bilan ajralib turadi. Zulfiya ko'plab she'rlar, hikoyalar va romannlar muallifidir. Uning "Guliston" va "Qo'shiqlar" kabi kitoblari o'zbekiston adabiyoti uchun katta ahamiyatga ega. Zulfiya nafaqat yozuvchi sifatida, balki jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy masalalar bo'yicha faoliyat olib borgan. U adabiyot va san'at sohasida ko'plab yutuqlarga erishgan va o'zbekiston adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

"Bahor keldi seni so'roqlab she'ridan olingan.

**"Derazamning oldida bir tup, O'rik oppoq bo'lib gulladi..." Gulni ko'rib
ishqparast qalbim, Ming aytilgan darddan kuyladi.**

**Sevgi qurg'ur buncha zo'r ekan, Hijron qo'shar ekan harorat. O'lgudayin
mushtoq bo'libman-Visolingga, yo'q chog'i toqat.**

**Seni qumsab oqshom chog'ida, Kirib keldim shu tanish uyga. Biz bir chog'lar
yashagan uyda, Tunab qoldim xayol-la birga.**

**Buncha issiq, buncha ham shinam, Yoshlik kechgan torgina shu joy. Bunda
yashar ajib onlardan, Ishq-la o'tgan tunlardan chiroyi**

**Har burchagi elitar hushim, Naqadarlik oshino, yaqin. Xuddi tunda kamolga
yetgan, Qo'shig'ingdan chaqnagan chaqin.**



**Bunda hayot - ilhom onlari, Qalamingdan to'kilgan gavhar. Gul bo'yini
olganda shamol, Rashqqa to'lib to'ngan u ko'zlar.**

**Sen tugatgach, chanqoqlik bilan, O'qib maftun bo'lganim hayot. "Qalay
degan" bo'lib termulgan, Ko'zlaringning otashi hayot.**

**Hali hayot, takror o'qirkan, Zavqqa to'lib yayragan ko'ksim. Yuzingdagi
ulug'vor, mayin, Bir jahonga arzir tabassum.**

Bari hayot, muhabbat kabi, Hamma yerda ko'rinar izing.

Parrandalar nag'ma kuyida, Jaranglaydi tovushing, sozing.

Meni o'rab oldi hayajon, Yana ortdi sevgining kuchi.

Sharq qizarib, chimoqda quyosh, Oltinlandi terakning uchi.

**Sen kuylagan o'rik shu kecha, Burkandi oq oppoq chechakka. Men qadrdon
xotira bilan, Jo'nab ketdim uyimga yakka.**

Har bir shoirning yozgan she'rlari asarlari o'z hayoti bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Zulfiyasini jodida hijron, sadoqat mavzusida yozilgan asarlar salmoqli o'rmni egallaydi. Inson qachon ijod qila oladi? Qachonki u chindan ham sevgi mima ekanini his qilsa, sevgini his qilmagan ijodkor mukamal va go'zal asarlar yuzib bilmaydi. Sevgi sababli uning ko'ziga dunyo ham undagi narsalar ham gu'zal ko'rina boshlaydi. Sevgi bu haq-haqsqat you'li unda yilg'on yo'q. Shoiraning qalbi ishqqa mabtalo bo'lgani uchun uning eng yaqin sirdoshi ham do'sti bo'lgan. Hamid Himjon ham Zulfiyani juda ham yaxshi ko'rgan keyin oila qurgandan keyin behad hursad edi.

Eng gullagan yoshlik chog'imda

Sen ochilding ko'ngil bog'imda

Shunda ko'rdi ko'zim haborni



Shunda qalbim tanıdı yorni.

Oradan qancha yilar o'tgan bo'lsa ham bunday shoir va shotralar haynlimizdan hech qachon chiqmaydi. Ko'pchilik shoirlarning she'rlarini bir o'qiganda tushunamiz lekin Zulfiyaxonim she'rlarini qancha ko'p o'qisak shuncha yaxshi ma'nosini tushunamiz. Chunki u yozgan paytida qanchalik o'ylanib yozgan narsalarni bir o'qiganda tushunib bo'lmaydi. Bahor Kaalmi juda ham yaxshi ko'rgan. Buyuk shoiramiz bahorni kuylar ekan o'zining holatini ham namoyon qilib beradi. O'zining boshidan o'tgan holalarni she'rlarga tushiradi va biroz yengil tortadi, Zulfiyaxonimning so'zga muhabbat uyg'onishiga asosiy sabab onasi chunki yoshligida unga qiziqarā rivoyat va ertaklar aytib berardi onasi Xadichabegim.

Xulosa

Zulfiyaxonim o'zbek adabiyotida o'zining chuqur lirizmi, yuksak ma'naviyati va samimiy tuyg'ulari bilan ajralib turgan betakror shoiradir. Uning ijodida ayol qalbining nozikligi, vatan va insoniyatga bo'lgan cheksiz muhabbat, mehnatsevarlik va sadoqat yuksak badiiy ifodasini topgan.

Zulfiya she'rlari inson qalbini ezgulik, poklik va mehrga undaydi. U nafaqat shoira sifatida, balki jamiyatda faol ayol, yoshlar uchun ibratli siymo sifatida ham o'z o'rnini mustahkamlagan. Shoiraning hayoti va ijodi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, u o'zbek ayolining kuchi, sabr-toqati va mehrini ifodalovchi timsolga aylangan. Zulfiyaning asarlari har bir o'quvchining qalbiga iliqlik baxsh etadi, insonni Vatan, sevgi va hayot go'zalligini qadrlashga chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zulfiya. Men tongni kuylayman. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1950.



2. Zulfiya. Yurak yo'lda. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1966.
3. Olimjon H. Tanlangan asarlar. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
5. Qodirova N. Zulfiya she'riyatining badiiy xususiyatlari. — Toshkent: Fan, 2012.
6. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. — 10-jild. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2002.